



**SHO'RO DAVRI TUGAB, MANQURTLIK CHEKINDIMI YOXUD
"SHO'RODAN QOLGAN ODAMLAR" ASARI MISOLIDA QIYOSIY
TAHLILLAR**

Omonova Gulshan

Jizzax davlat pedagogika universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu hikoya yurtimiz insonlariga majburan singdirib kelingan, ma'naviyatimizni qashshoqlikga yuz tutushi maqsadida olib borilgan sho'ro davri siyosati haqida chuqur mulohazalar yuritiladi. Bu yod g'oyalar esa qissada ota va bola o'rtasidagi va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi insoniy tuyg'ularni ham chetlab o'tganining guvohi bo'lamiz. O'z ayoli vafot etganda ham ish fo'rmasini yechmasligi haqida barchaga do'q qilgan inson timsoli, yagona jiyanini hech qanday qayg'urishsiz, qamoqda qiynalishidan zavqlangan amaki obrazlari mavjud. Maqolaning mohiyati shundaki manqurtlik yosh tanlamasligi, hammaga teng tegib o'tuvchi shamol misoli tarqalgan yod g'oyalarga yo'g'rilgan insoniyat taqdiridagi voqealar yuzasidan tahlillarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'z: siyosat, insoniylik, ma'naviyat, mustabid, buzg'unchilik, istiqlool, qissa.

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.
O'rtoq qonin tonmay ichgan zuluklar,
Qardosh etin to'ymay yegan qoplonlar?

Abdurauf Fitrat

Kirish

Yozuvchi Shoyim Bo'tayev qissa janrida o'ta serqirra ijod qilgan, mustaqillik davridan so'ng asarlar yoza boshlagan ijodkor hisoblanib, uning "Sho'rodan qolgan odamlar" asarida Turkiston yurtidagi qaramlik davrida insonlar taqdiri qanday kechganligini, xuddi hech narsaga qaramay to'lqinlanib oqayotgan dengiz to'lqini misoli voqealar rivoji asosida ko'rsatib bergan.

Asar bosh qahramoni Toshmurod maktabni endi bitirgan bola bo'ladi. Nega aynan asarda yosh o'smirning o'g'irligi tasvirlanadi, yozuvchi boshqa inson orqali ham o'g'irlik voqeasini ochsa bo'lar ediku. Misol uchun xalqning o'sha davrdagi ocharchiligini oydinlashtirish uchun o'g'irlik hodisasini kiritgan bo'lsa qahramon sifatida oilali, farzandlari bor va ularni boqishdagi qiyinchilik sababli



o'g'irlik qilganini tasvirla ham bo'lar edi, ammo yozuvchining shu joyda o'ta zehinli ekanligini bilib olsak bo'ladi, u yosh yigitlarni o'g'irlik uchun tanlab oldi. U bu bilan nima demoqchi deb o'ylaysiz? Menimcha endi ta'lim dargohini bitirgan bolalar obrazi bilan sho'ro davri maktablaridagi berilgan bilim va tarbiyaning o'ta sayozligini va buning tasirida bolalarga kelajakda qanday yo'ldan yurishi, kasb tanlash haqidaku umuman bilim ko'nikma berilmaganini ochiqchasiga ochib bergan, hamda ayni dam va mustamlaka davri rus tuzem maktablarining farqini dallilamoqchi bo'lgan. Birinchi o'qigan inson bu voqeaga chuqur yondasha olib fikr yuritishi amri maholdir. Shu sabablar tufayli esa bolalar o'g'irlikga qo'l urishadi, chunki jamiyat insonlari buning oldini olish uchun ham hech qachon ularga pand- nasihat qilishmagan bo'lishadilar.

O'z mansabi doirasidan chiqa olmaydigan yana bir bosh obraz bu Toshmurodning otasi hisoblanib, u qamoqxonada nazoratchi lavozimida ish faoliyati yuritadi. Ota hech qachon bolasi uchun ko'ngildan mehr bermagan obraz sifatida gavdalanadi. Uning og'zidan doim Lelin ismi tushmasligi o'qigan o'quvchiga ma'lum. Ijodkor bu obraz orqali rus tuzem mafkuraviy g'oyasini yanada yaqqol ochib beradi. Bilamizki mustaqillikdan oldin xalqning ma'naviyatini sindirish uchun qilingan ishlar albatta ro'yo emas, ularning bir qurboni bu Toshmurodning otasi. U doim o'z ishini hammadan birinchi o'ringa qo'yadi. O'g'li qamoqqa tushganini eshitgan ota, unga yordam berishnida hayolidan o'tkazmaydi. Asar yakunida ayoling vafoti sahnasida u o'z ish formasini yechmasligini birodarlariga do'q qilgan holda aytib o'tadi. Bilamizki o'zbek xalqida inson vafot etganda, motam ramzi sifatida erkaklar chomon, ayollar oq ro'mol o'rashadi, ammo bu obraz bundan bosh tortadi. To'g'ri motam ramzi doim ham kiyim bilan o'lchanmaydi, ammo asar qahramoni tilida u o'z ishini mansabini birinchi o'ringa qo'yganligi asarda ma'lum bo'lgan. Bu bilan yozuvchi bu insonni manqurtga aylanib bo'lgan inson sifatida ta'riflab asarda jonlantirgan.

Adabiyotlar Tahlili

Xalqimioz ichidan chiqqan chinakam jadidchilik rahnamalaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiyani tu'g'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim"-deb yozgan hikmatida dengiz tubida minglab yashirinib yotgan misilsiz boylik misoli ma'nolar bor. Yurt farzandlariga to'g'ri tarbiya ko'rsatilganda edi, balkim bunday fojealar ro'y bermagan bo'lar edi. Ammo mustaqillikka erishibmizki, bazi insonlar tilidan mustamlaka davr muhiti yaxshiroq bo'lganligi haqidagi fikrlarni ham eshitib qolamiz. Misol uchun men qaramlikda yeyiladigan dasturxon to'la bazmu-jamshidlardan, mustaqillikda chekilgan qiyinchiliklarni avzal ko'raman, oramizda ham mendek fikr yurutadiganlar albatta kam emas. Keskin fikrlari va tushunish qiyin bo'lgan, real hayot tarzini o'ta ochiqchasiga



asarlarida yozib ijod qilgan rus adibi F.M.Dostayevskiyning “Iblislar” asarida yurt insonlari g’oyaviy qashshoq va mansab egalarining gaplarini to’g’ri deb o’z shaxsiy fikrini bildirsa olmaydigan qoloq insonlar tasviriga to’ldirgan.Undan tashqari uning “Xo’rlangan va Haqoratlanganlar “ asarida ham huddi shunday g’oya yotadi. Yozuvchi asarlarida gavgdalandtirgan shaxslar mafkura qurboni sifatida tariflangan, o’z fikriga ega emas inson timsollariga yo’g’rigan asarlardir. Bu g’oya esa qissamiz mafkurasi bilan bog’liq g’oyalarga yo’g’rilgan. Inson ona qornidan tug’ular ekan, ming kuchli tug’ma farosat bilan tug’ulmasin, unga jamiyat muhiti tasirini o’tkazmay qolmaydi, ammo o’zgalar berayotgan g’oyalarga doim ham insoniyat bog’lanib ishonib qolishi bu xatodir.

Muxokama

Yozuvchi qissada har bir predmet va voqeaga o’zgacha yondashadi, misol uchun: “O’zi, gapning sirasini aytganda, bitta-yarimta ashaddiylarini xisobga olmaganda keying yillar mobaynida bu yerga keltirilgan mahbuslar qo’ydek yuvosh ,ko’pchiliklari esa xatto , nima gunoh qilganliklarini ham bilmas edilar”. Bu bilan qamoqxonadagi insonlarning ko’pchiligi shunchaki jamiyat mafkurasi qurbonlari ekanligini ko’rsak bo’ladi. Ayni damni misol qilsak, insonlar nohaq ayblanib qamalishi juda kam, hatto yo’q desak ham bo’ladi. Nega bizning millat insonlari bunday nohaq qamalavergan, bunga sabab ularni qo’rqitib nazoratda ushlab turish hisoblanganmi?

Asarda yana shunday sahna borki insoniyatning shunchalar mehrsizlik girdobiga tushib qolishi mumkinligini ifodalagan.

“Nazoratchi :

Yig’ladingmi? – deya so’rab yuborganini o’zi ham bilmay qoldi .

-Ha ,-deb qo’ydi.

Nazoratchi boshqa gap so’ramadi.

Buyruq qildi :

- Oldimga tush”,

Bu voqealikda shunday jarayon kechadiki , Toshmurod otasi ishlaydigan qamoqxonaga maxbus bo’lib tushgan bo’ladi. Otasi bir iltimosi bilan bolasini qamoqdan ozod qilishga erishishi mumkin edi, ammo nazoratchi buni umuman hayoliga keltirmaydi, agar Toshmurodni qamoqdan ozod qilishga yordam berganda balkim ayoli vafot etmagan bo’lar edi. Bolasiga kuygan ayolning joni uziladi. Shunda ham nazoratchi hech qachon Toshmurodni o’g’lim deb atamaydi, balki mahbus deb chaqiradi. Ne zamonlardan buyon yurtimizda farzand ota – ona munosabatlari chuqur tarbiya ustiga qurilgan ammo bu asar qahramonlaridan mehr yuz o’g’irgan edi.

O’sha mustamlaka davri ham yakunlandi, erkimizga ham erishdik, ammo yosh avlod farzandlari ichida ham ayni zamon manqurtlari mavjud, ular birovning fikrisiz ish yurutib qaror qabul qilisha olishmaydi , bu esa yosh



avlodning yomon g'oyalar tasiriga tushib qolishini bevosita taminlaydi. Hozir yurtimiz mustaqil, ammo manqurtlik bizni hali hanuz o'z taqibidan qo'yib yuborgani yo'q. Shuning uchun yosh avlodga shuni aytish lozimki ilm oling manbalarni birovdan eshitib emas, o'z ko'zingiz bilan ko'rib qaror qabul qilishlarini aytib qolardim.

Xulosa

Serqirra ijodkor Shoyim Bo'tayevning bu asarini o'qib menda shunday g'oya uyg'ondiki inson qancha kam bilim va ko'nika, hayot tajribasiga ega bo'lsa, uning o'zga insonlar tasiriga tushishi o'ta kuchlidir. Bu esa avvalo inson o'zligining yo'qolishiga olib keladi. Yozuvchi esa bu fikrni o'z qissasida bosh obrazlarning qilgan ishlari, qarorlari timsolida o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan. Ijtimoy muhit doim insonlarga tasirini tekkizmay qolishi mumkin emasligi, bu muhit bazilarni o'ta yuksaltirada yani qarshi tasir qiyinchilik bazilarni tog' cho'qqisi misoli yuksaklarga eltadi, bazi insonlarni esa jarlik misoli yer qariga g'arq qilib yuboradi. O'quvchi bu asardan o'z fikrlaringizni to'g'ri mulohaza qilib chiqarishingizni so'rab qolaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Bo'tayev Sh ."Sho'rodan qolgan odamlar" Ziyo istagan qalblar- 2013
- 2.Fyodor D. "Iblislar" O'qituvchi – 2018
- 3.Fyodor D. "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar"Ilm – ziyo –zakovat -2019
- 4.Jumayeva G."Millatni kim qutqaradi" SJIF-2023